

**TERMINOLOGIYA STRUKTURAL TILSHUNOSLIKNING BIR SOHASI SIFATIDA****Hasanov Elyorjon Odiljonovich****Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,****Ibragimova Muslimaxon Ravshanjon qizi****Xorijiy tillar fakulteti MBTIT yo'nalishi 401-guruh talabasi****Telefon raqami: +998909441072****Email: [elyor\\_star@mail.ru](mailto:elyor_star@mail.ru)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10220406>****ANNOTATSIYA**

Tilshunoslik va terminologiya sohalarining bir biriga chambarchas bog'liq ekanligi ularning asosida, negizida so'z va uning ma'nolari bo'lishidadur. Ushbu maqolada terminologiya struktural tilshunoslikning bir sohasi ekanligi va unda qilingan va qilinishi zarur bo'lgan bir qancha izlanishlar haqida so'z yuritadi.

**KALIT SO'ZLAR:** termin, terminologiya, biznes, leksika, atama, atamashunoslik, derivatsion go'ya

Dunyo bo'ylab insonlarning kundalik turmush tarzi va faoliyatida biznes hamda biznes terminlarining ahamiyati haqidagi masalalar ko'paymoqda. Bu esa o'z o'rnida, ushbu sohada yangi biznes yo'nalishlari, biznes leksikasi rivojiga sabab bo'lmoqda. Natijada, har bir davlatda milliy til xususiyatiga ega bo'lgan biznes terminologiyasi vujudga kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqoridagi omillar biznes terminologiyasini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish, terminlarni va leksik birliklarni tizimlashtirish hamda tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. Til va jamiyatning o'zaro chambarchas bog'liqligi, ularning dinamik holda to'xtovsiz o'zgarishlarga uchrashi, qolaversa, sohaga yangi termin va leksik birliklarning muntazam o'zlashtirilishi va keng qo'llanilishi ushbu masalada doimiy izlanishlarni talab qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida biznesga oid termin va leksemalarning ingliz va o'zbek tillari misolidagi qiyosiy-tipologik tahlili mazkur tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni hamda ikki til terminologiyasining farqli va o'xshash xususiyatlarini yoritishga hissa qo'shadi.

Terminologiya terminlarni o'rganuvchi fan bo'lib, mustaqil fan sifatida yigirmanchi asrda paydo bo'ldi. Terminologiya til leksik tizimining muayyan qismi sifatida bir necha asrlar davomida o'rganilgan, lekin bu faqat dastlabki bosqich sifatida ko'riladi. Terminlarni o'rganish ularni tuzatish bilan bir paytda olib borilganda, hali terminlar tadqiqi leksikologiyadan ajralib chiqmagan edi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etil- sa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi. V. P. Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil fimeksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi<sup>1</sup>. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi,

<sup>1</sup> Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. М.: Наука, 1977. Стр-8

soʻz yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi. X. Xyuellning qayd etishiga koʻra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qoʻllanadigan soʻzlar yigʻindisidir. Biz terminlar maʼnosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz<sup>2</sup>.

Termin soʻzini turlicha tushunish mavjud. Chunoschi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin-aniiq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yigʻindisini nazarda tutuvchi hamda unda tatbiq etiluvchi soʻz hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan soʻz termin boʻlishi mumkin. Fan va texnikada termin sunʼiy oʻylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus soʻz sanaladi. Bunday soʻzlarning qoʻllanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli oʻlaroq, ilm-fan hamda texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular oʻz maʼnolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi. Fandagi har qanday rivojlanish hamda taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Tamgʻalangan (markerlangan) va tamgʻalanmagan (markerlanmagan) birliklar nazariyasi mantiqiy (logik) boʻlinishning rivojlanish hamda takomillashishida yangi qadam sanaladi.

Terminologik leksika oʻz tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga koʻchgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qoʻllanadigan soʻz va soʻz birikmalarini qamrab oladi. Umumadabiy til doirasiga oʻtgan termin oʻz terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi. Termin taʼrifi xususida ilmiy adabiyotlarda koʻpdan-koʻp mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha taʼriflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi tarzida tavsiflanadi.

O. Vinokurning fikricha, “termin - har doim aniiq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin oʻz-oʻzidan, stixiyali tarzda paydo boimaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. A. Gerdning mulohazasiga koʻra, tennin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniiq va toʻlaligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik maʼnoga ega tabiiy va sunʼiy til birligi, yaʼni soʻz yoki soʻz birikmasidir”<sup>3</sup>. O. Axmanovanning taʼkidlashicha, “terminologiya qaysidir fan oʻz taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, yaʼni termin muayyan tushuncha aniiq ilmiy ifoda kasb etgandan soʻng tan olinadi. Termini notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda taʼriflashning mumkin emasligidadir”. V. G. Gak terminning taʼrifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi hamda terminning biror bir til soʻz boyligidagi oʻrnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lugʻaviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga eʼtiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qoʻllanishining bir koʻrinishi, degan gʻoyani ilgari suradi<sup>4</sup>. V. P. Danilenkoning eʼtirof etishicha, “jamiyatda sodir boʻladigan har qanday jarayonning inʼikosi dastavval terminologiyada oʻz ifodasini topadi yoki

<sup>2</sup> Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. – London, 1967.

<sup>3</sup> Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2. -М.,1991. №10. – С.1-4.

<sup>4</sup> Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ.1972. – С.68 - 71.

muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi"<sup>5</sup>. D. Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi alohida ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'mi, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'mi, mavqei bilan aniqlanadi. Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi<sup>6</sup>. Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi. Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, derivatsion, semantik hamda pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda. Substansional nuqtai nazar vakillariga ko'ra, termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan birma'noliligi, aniqligi, sistemliliği, kontekstdan holiligi hamda emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi. Funksional nuqtai nazarga binoan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funksiyaga ega so'zlardir; terminning o'mi(rolini istalgan so'z bosishi, o'ynashi mumkin. Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasaliş jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Ushbu g'oya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy so'zning varianti, shuningdek, yangi, o'ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi. Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoyda, buning imkoni ham yo'q. Insoniyatning tabiatni bilish, anglash bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan kashf etiladigan, yaratiladigan(ishlab chiqarish nomenklaturasi) texnik nomenklatura, shuningdek, xaridorbop tovarlar bilan ta'minlash, ularni sotish maqsadida maxsus yuzaga chiqariladigan savdo-sotiq nomenklaturasini farqlash lozim bo'ladi. Garchi har uchala nomenklatura ham manfaatdor subyektlar tomonidan yaratilsa-da, biroq ular turli asos, turli maqsad va turli prinsiplar negizida voqelanadi. Ilmiy bilish nomenlarining inson tomonidan yaratilgan ilmiy-texnikaviy nomenlardan farqi shundaki, ilmiy nomenlar tabiatda mavjud bo'lsa, ikkinchisi tabiatda mavjud emas. Kashfiyotchi tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar uchun nom xalq tilidan olinmaydi (samolyot, vezdexod, samokat kabi birliklar bundan mustasno). Ushbu kategoriyalar, ya'ni nomenlarni ifodalovchi so'zlar o'z yoki chet tillardagi leksemalarga tayanilib, sun'iy ravishda yaratiladi, bunda harf va raqamlar indeksatsiyasi alohida ta'kidlanadi: "Moskvich-412", "MAZ -5", "Tu-144", "Mig-29", "Su-34", "T-90" va boshqalar.

<sup>5</sup> Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – М.: МГУ, 1971. Стр. 9

<sup>6</sup> Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. -М.: АН СССР, 1961.

## References:

1. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ.1972. – С.68 -71.
2. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – М.: МГУ, 1971. Стр. 9
3. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. -М.: АН СССР, 1961.
4. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно- техническая информация. Серия 2. -М.,1991. №10. – С.1-4.
5. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. М.: Наука, 1977. Стр-8
6. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. – London, 1967.



INNOVATIVE  
ACADEMY